


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLES OF TOLERANCE IN SOCIETY**

Nargiza Shoaliyeva

Associate Professor of the Department of "Uzbek Language and Classical Oriental Literature",
 Candidate of Philological Sciences
 International Islamic Academy of Uzbekistan
 Tashkent, Uzbekistan
 E-mail: nshoaliyeva74@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Tolerance, society, people, development, religion, country, reform, person.

Received: 15.12.24

Accepted: 17.12.24

Published: 19.12.24

Abstract: In the current 21st century, the growing processes of globalization, when it is possible for a person to live and work freely and safely in society, is one of the most pressing topics of our time. If we take into account how many of the activities of international organizations, policies and programs of states are focused on this topic, we can see that members of today's society have not yet achieved stability and general well-being.

Although the priority laws and religious rules are always aimed at ensuring a happy and prosperous life for people, it can be seen that the principles of tolerance are not given enough attention in practice. In this article we tried to analyze this situation using the example of the history of Turkey and Iran, since they, like most countries in the world, have gone through a similar experience. Accordingly, a brief study of this issue allowed us to present certain conclusions.

JAMIYATDA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARINING AHAMIYATI

Nargiza Shoaliyeva

"O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
 O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
 Toshkent, O'zbekiston
 E-mail: nshoaliyeva74@mail.ru

МАQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Bag‘rikenglik, jamiyat, xalq, taraqqiyot, ravnaq, din, mamlakat, islohot, inson.

Annotatsiya: XXI arsning hozirgi globallashuv davrida, insonning jamiyatda erkin va emin yashab, faoliyat ko‘rsatishi dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelmoqda. Qanchalik xalqaro tashkilotlar asoslari, davlatlar siyosati va dasturlari aynan shu mavzuga qaratilganini inobatga olsak, bugungi jamiyat a`zolari hali hanuz subot va barqarorlikga, yetmaganlarini guvohi bo‘lish mumkin. Garchi ustuvor qonunlar, din ahkomlari mudom insonlarning baxtli va farovon yashashini ta`minlashga qaratilgan bo‘lsada, bag‘rikenglik tamoyillariga amalda kerakli darajada e`tibor berilmayotganini ko‘rish mumkin. Bu holatni dunyo mamlakatlari tarixida bir biriga o‘xshash tajribalarni boshlaridan o‘tkazganliklarini hamda ularning bugungi natijalaridan to‘g‘ri qaror va xulosalarga kelish mumkinligini shu maqolada – Turkiya va Eron tarixi misolida – tahlil qilishga harakat qilindi va qisqa xulosalar berildi.

ЗНАЧЕНИЕ ПРИНЦИПОВ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Наргиза Шоалиева

Доцент кафедры «Узбекский язык и классическая восточная литература», кандидат филологических наук

Международная исламская академия Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: nshoaliyeva74@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Толерантность, общество, народ, развитие, религия, страна, реформа, человек.

Аннотация: В нынешний, XXI век нарастания процессов глобализации, когда существует возможность для человека свободно и безопасно жить и работать в обществе, представляет собой с одну из наиболее актуальных тем современности. Если принять во внимание, сколько основ деятельности международных организаций, направлений политики и программ деятельности государств ориентированы на эту тему, то можно увидеть, что члены сегодняшнего общества еще не достигли стабильности и всеобщего благополучия.

Хотя приоритетные законы и религиозные правила всегда направлены на обеспечение счастливой и благополучной жизни людей, можно увидеть, что

принципам толерантности на практике уделяется недостаточно внимания. В этой статье мы попытались проанализировать эту ситуацию на примере истории Турции и Ирана, так как они как большинство стран мира пережили подобный опыт. Соответственно, краткое исследование данного вопроса позволило представить определенные выводы.

Bag'rikenglik, tolerantlik – o'zgalar va atrofdagilarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishlikdir. Zamonaviy hayotimizda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tolerantlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, BMT Bosh Assambleyasining qaroriga ko'ra, 1996-yildan buyon mazkur sana butun dunyoda "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlanadi. Jamiyatimizda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini ko'rish mumkin. Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqyeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar», degan tamoyilning mustahkamlab qo'yilishi esa, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Aslida bu tushuncha din va qadriyatimizda ham asrlar davomida o'z ahamiyatini namoyon etib kelgan.

Yengillik va muloyimlik har bir samoviy dinning asosidir, chunki Qur'oni Karim tafsiriga ko'ra, ilohiy din tabiiy masaladir, ya'ni inson takomilini yaratish uchun zarur bo'lgan qimmatbaho toshdir. Shuning uchun ilohiy farmon va amaliy rejalar inson tabiatiga mos keladi, ya'ni, muqaddas shariatda inson tabiatni tubida ildiz olmagan da'vat bo'lishi mumkin emas, inson borlig'ining tubida bo'lishi mumkin bo'limgan narsaga shariat qarshi chiqadi.

Islom dinining asosi – eng komil ilohiy din ham shu o'qga asoslanadi va uning yengilligi va moslashuvchanligi oyatlar va hadislar asosida qonun va qoidalari bilan belgilab berilgan.

Qarama-qarshi e'tiqod va xulq-atvorga, ayniqsa diniy e'tiqod va xulq-atvorga diniy ta'limotlarga asoslangan bag'rikenglik va sabrlilik "diniy bag'rikenglik", diniy ta'limotlardan kelib chiqadigan qarama-qarshi e'tiqod va xatti-harakatlarga, ayniqsa, diniy e'tiqod va xatti-harakatlarga nisbatan qattiqko'lllik va toqatsizlik "muxolifat" deb ataladi, diniy murosasizlik.

Ta'rifga ko'ra, diniy ongda bag'rikenglik dinni qabul qilish tamoyilida mavjud va bu shuni anglatadiki, odamlar din turini tanlash va qabul qilishda erkin va emindirlar, chunki inson ijodining falsafasi va hikmati, haqiqat, komillik va inson kamoloti iroda erkinligi va eminligiga asoslanadi va insonning yaratilish maqsadi ixtiyoriy amallar bilan kamolot yo'liga borish va bu tushnchaga ega bo'lish uchun insonga qudrat va iroda erkinligidan tashqari ogohlilik va bilim ham berilgan.

Garchi inson ixtiyoridagi kuch va iroda mukammal emas va uning bilim vositalari – histuyg‘u, sezgi va aql-idrok haqiqiy kamolot va to‘liq baxt yo‘lini bilish uchun mo‘ljallangan va bu vositalar bilan u hayot yo‘lini to‘ldirishga qodir.

Binobarin, inson o‘z-o‘zini bilish vositalariga g‘amxo‘rlik qilib, ilohiy elchilar (alayhissalom)ning vahiy va hidoyatlari yordamida hamda to‘liq erkinlik va ixtiyor bilan hidoyat va najot yo‘lini bosib o‘tishi mumkin. Binobarin, islomda inson o‘z dinini qabul qilish va tanlashda mohiyatan erkindir *لَا إِكْرَاهٌ فِي الدِّينِ قَدْ تَبَيَّنَ الرُّشْدُ مِنَ الْغَيْرِ* (baqara so‘rasi 256 oyat) dinda majburlash yo‘qdir. Demak, din va e’tiqodga majburlash mumkin emas, balki u qanoat va rozilik bilan qabul etiladi. Tafsirlarda oyatlar tushuntirib berilgan bo‘lsada, Allah kalomini juda keng ma`noda anglash kerak bo‘ladi.

Tarixga nazar solinsa, A.Firdavsiy (940-1020) “Shohnoma”sidagi birinchi davlatchilikdan tortib, to bugungi kun davlat siyosatlarida, ijtimoiy hayotda qanchalik bag‘rikenglik tamoyillari jamiyatda keng qo‘llanilgan bo‘lsa, usha davlat shunchalik ravnaq va taraqqiy topganligini guvohi bo‘lish mumkin (Zahhok davridagi mamlakat inqirozi va Faridun davrida mamlakatning ravnaq topishi). Insonlar tarixdan ibrat olmasliklari sabab, tarix takrorlashini ko‘p mushoahada qilish mumkin. Tarixi mushtarak bo‘lgan Turkiya va Eron davlatlarini oxirgi 100 yillik tarixini mushohada qilinsa, bag‘rikenglik yondoshuvining natijalari aniq namoyon bo‘ladi.

Ikki qo‘shni va bir biriga o‘xhash mamlakatlar, bir zamonni o‘zida ikki qudratli simolar hokimiyatni qo‘lga olganlar. Biri Qojarlar silolasidan keyingi Eron shohi Rizoxon Pahlaviy (1878-1944), ikkinchisi Usmoniylardan keyin hukumatni qo‘lga olgan Mustafo Kamol Ota-turk (1881-1938) hukumatlari misolida ko‘rish mumkin. Ikkalasi ham bir maqsad sari davlat boshqarganlar, ya`ni jamiyatni zamonaviy qilish, modernizasiyalashtirish va tamaddunlashtirishga islohotlar olib borganlar. Davlatlarini har tomonlama rivojlantirish, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash niyatida bir qator islohotlarni ijobiy o‘zgarishlarni boshlab bergenlar. Hozirda Ota-turkning hokimiyat tepasiga kelganiga (1923y.) 101 yil, Rizo Pahlaviya (1925) 99 yil bo‘libdi. Lekin ko‘rib to‘rganingizdek, bugungi kunda bu mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy vaziyati turli xil bo‘lib, ikki davlatning siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy o‘sishi turlicha va dunyo hamjamiyati va jahon siyosatidagi o‘rni ham butunlay farq qiladi.

Usmoniyalar 1815yilda inqirozga uchragan paytda, isyonchilar va inqilobchilar mamlakat bo‘ylab bosh ko‘tarib boshladilar. yunonliklar, serbiyaliklar, bolgariyaliklar va ruminyaniklar Usmoniyalar nufuzidan qutilmoqchi edilar. Bu muammo yillar davomida mavjud edi, bu sharoitda milliylikni xohlovchi turklar tomonidan “Yosh turklar” nomli guruhi tashkillashtirildi va usmoniyalar mintaqasining orasida faoliyat olib borishdi, Yosh turklarning talabi mashrutiyat edi. Sulton Abdulhamid Soniy (1842-1918) qudratga kelganda, usmoniyalar bilan ruslar urushi avjiga chiqqan edi. Yosh turklar guruhi qudratli siyosiy kuchga aylangan bo‘lsalarda, a`zolarining

ko‘plarini urushda uldirishdi. Shunga qaramay, yosh turklar yashirin bir guruh tuzadilar va uning nomini “Muttahid va taraqqiy topgan jamiyat” deb atadilar. 1908 milodiy yil bu guruh va yosh turklar to‘ntarish qilib hukumatni qo‘lga oldilar. Hukumatga kelgach, usmoniyalar qamrog‘idagi begona millatlarni - armanlar va yunoniylarni chiqazib yuborishni boshlaganlarida, birinchi jahon urishi boshlanadi. Mustafo Kamol Ota-turk ham yosh turklar guruhi a`zosi edi. Bular urushdan foydalanib, Usmoniyalar parchalanishiga yordam beradi va natijada buyuk Usmoniy davlati 12 mustaqil davlatga bo‘linadi. Shu orada Yunoniylar va turklar urishi 4 yil davom etdi. Ota-turk yunoniylar ustidan g‘alaba qozongach, Usmoniyalar silolasi nomini ta`rixda yopdilar va Turkiyani Jumhuriyat, deb e`lon qildilar. O‘zi ham Turkiya Respublikasining birinchi Prezidenti bo‘ldi. Ota-turk 15 yil Turkiya davlatini boshqardi. Shu davr mobaynida juda ko‘p islohotlarni amalga oshirdi, birinchi (birinchi bo‘lib, Turkiyani sekular davlat deb e`lon qildi, ya`ni din va siyosatni ajratib, dinni siyosatga aralashtirmadi, madrasalarni yopdi, alifboni o‘zgartirib, lotinchaga aylantirdi. Familiyalarni o‘zgartirdi, o‘zini ham Ota-turk, deb e`lon qildi. Turkiyani qayta qurishni boshladi.

XX asrning 1-choragida Erondagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar tahlili asosida quyidagilarni ta`kidlash mumkin.

Eronda Rizoshoh Pahlaviy 32 yoshligida Mashrutiyat inqilobi(1911) g‘alaba qozondi, ya`ni shoh hukumat qilmasdan sultanat qilishini talab qilishdi. Milliy majlis tashkil qildilar, lekin 15 yil ichida mamlakat ahvoli ravnaq topmadni, birinchi jahon urushi ham Eron xalqiga qiyinchiliklar olib keldi, Rossiyadagi 1917 yilgi inqilob ham Eronga o‘z ta`sirini ko‘rsatadi. Shu vaziyatda Eron Anglya bilan 1919 yil shartnama tuzishdi, bu shartnama inglizlarning nufuzini Eronda kuchaytirardi. Shohga qarshi kuchlar bu vaziyatdan unumli foydalanib, Qojar davlatini 1920 yilda, qon tukilishsiz, tuntarishga muvaffaq bo‘ldilar. Sayed Ziyo bosh vazir bo‘ldi va Rizoxon mudofaa vaziri bo‘ldi, lekin Sayed Ziyo ham davlat ravnaqi uchun hech qanaqa islohot qila olmadi, Shoh qudtrati juda zaiflashgan edi. Mamlakatda xarajatlar ham ko‘payib ketib, inqirozga duch kelgan edi. Eron siyosiy tizimi qudratli yangi simoga muhtoj edi, natijada Ahmadshoh Qojar mudofaa vazirini bosh vazirlikga tayinlaydi. Natijada Rizoxonni bosh vazir, deb e`lon qilib, Firansiyaga ketadi, ruhoniylarni qarshiligiga qaramay Rizoxon davlatni milliy majlisda jumhuriyat, deb e`lon qiladi. O‘zini nomini ham o‘zgartirib, Rizoshoh Pahlaviy, deb e`lon qiladi. Pahlaviylar silolasi asoschi bo‘ladi. Eronning qadimgi qutratini qaytarish maqsadida islohotlarni boshlaydi, ism shariflarni forsiylashtirish, hijobni ayollar boshidan majburiy olib tashlaydi. Uning maqsadi davlat va millatni zamonaviylashtirib, taraqqiy toptirish va rivojlantirish edi.

Aytgilganidek, o‘sha davrda ikki davlat boshliqlarining niyatları bir xil bo‘lib, zamonaviy sekular va qudratli davlat qurishga yo‘naltirilgan edi. Ikkala rahbar ham jamiyatning iqtisodiy, siyosiy jihatdan qayta qurishni boshlab bergan edi va qaysidir ma`noda yutuqlarga ham erishgan edilar. Hozirgi kunda Otaturk boshlagan qayta qurish o‘z samarasini bergenligini guvohi

bo‘lyapmiz, shuning uchun butun Turkiya xalqi har yili Ota-turk vafoti kuni, uning hurmatiga bir lahma sukul saqlaydilar, lekin bugungi Eronda vaziyat o‘zgacha tus olgan, Rizoshohning qayta qurushi afsusuki, Ota-turk kabi bardavom bo‘lmadi. Bunga ko‘plab omillarni sabab qilish mumkin, Eron xalqini qayta qurishga tayyormasligini, yoki Turkiya xalqidek turli millat va ellatdan iborat emasligini sanab o‘tish mumkin. Muhim omillardan biri Rizoshoh siyoyatida bag‘rikenglik tamoyillariga putur yetkazganligini mushohada qilish mumkin, kuch bilan erishilgan modernizatsiya xalqga yoqmadi, chunki usha davr Eron xalqi ongli ravishda bu o‘zgarishlarga tayyor emas edi, bu holat shoh siyosatiga xayrixoh bo‘lмаган kuchlarga (aqidaparastlarga) quolib qildi, natijada tuntarish va inqilob bo‘lishiga duch keldi.

Ikki rahbarning kelajakdagagi rejalarini bir xil bo‘lgan bo‘lsada, lekin ularni amalga oshirishda siyosat olib borishda har xil yo‘ldan borganlar. Bu ikki mamlakat tarixidan ko‘rib turganimizdek, bag‘rikenglik tamoyillari jamiyatning ravnaqi va taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biri hisoblansada, jamiyatda bu omilni mavjudligi usha jamiyat odamlarining bilimi, savodxonligi, ogohligi va dunyoqarashining kengligidan darak beradi. Natijada ogoh fuqarolarga ega bo‘lgan jamiyat ravnaq topadi. Shunga ko‘ra hozirgi kunda orqada qolgan mamlakatlarda aynan bag‘rikenglik tamoyillari buzulganligi, jamiyatdagi mahdudlikni, mutaassiblikni mavjudligidan darak beradi.

Oxirgi yillardagi mamlakatimizdagi tubdan o‘zgarishlar, davlat rahbarlarining oqilona siyosati natijasida ta‘lim-tarbiyadagi islohotlar, jamiyatda xotin-qizlar ta‘lim darajasini ko‘tarish, qonun ustuvorligini mustahkamlash va odamlar dunyoqarashini kengaytirish, bandlikni oshirish, xususan xotin-qizlarning jamiyatdagagi faolligini oshirish, kambag‘allikga qarshi kurash dasturlari aholi orasida ma`naviyatni oshirishda yordam bermoqda. Natijada ma`rifatli jamiyat bag‘rikenglik tamoyillarini har tomonlama tushunadi va o‘zgalar va atrofdagilarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘ladi. Shunda tarixdagagi xatolar qayta takrorlanmaydi, mamlakat ravnaqi va taraqqiy topishiga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Gholam Ali Haddad Adel; et al. (2012). The Pahlavi Dynasty: An Entry from Encyclopaedia of the World of Islam. EWI Press. p.3.
2. O‘zME (menku tushundim, lekin bu qisqartma omma xalqqa ayonmi?). Birinchi jild. Toshkent, 2000
3. Toraje Atobaki. Tajajdude omerone jamiyat va dovlat dar asre Rizoshah. 1395h.sh.y., Tehron, Qaqnus nashri, 286 bet.
4. Mikoil Azimiyy. Moliyee rohi mashrute ast. 1400 h.sh.y., Tehron, Nihodgaro nashri, 328bet.

5. Igdemir Ulu`g‘. Ota-turk. Hamid Natoqiy tarjimai. 1348 h.sh.y., Tehron, Muasassaye farhangi mantaqeiy. 210bet
7. Yervand Abrahimiyan. Torixe Irone modern. 1389h.sh.y., Tehron. Nashrni, 356 bet
8. N Shoaliyeva. ILM-FAN VA TEXNALOGIYA RIVOJIDA AYOLLARNING O ‘RNI, Oriental Conferences 1 (1), 24-32
9. https://fa.wikifeqh.ir/%D8%AA%D8%B3%D8%A7%D9%87%D9%84_%D9%88_%D-8%AA%D8%B3%D8%A7%D9%85%D8%AD_%D8%A7%D8%B2_%D9%85%D9%86%D8%D8%D8%B1_%D8%AF%DB%8C%D9%86